e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


# IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

**ISSN 3060-5059 (Online)**
*Article / Original paper* https://doi.org/10.67227/6eagnq13

# O‘ZBEK XALQ HUNARMANDCHILIGINING TARIXIY TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY TRANSFORMATSIYASI

**Fayzullayeva Shahnoza Shuhratovna**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, magistrant.
**e-mail:** shahnozafayzullayeva@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0009-0000-7145-4972

**Annotatsiya.**
Maqolada o‘zbek xalq hunarmandchiligining qadimgi shaharlar madaniyatidan bugungi raqamli bozorgacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyoti va o‘zgarish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda hunarmandchilik rivojlanishining to‘rt tarixiy bosqichi (Buyuk Ipak yo‘li davri, xonliklar davri, sovet davri va mustaqillik davri) qiyosiy o‘rganiladi hamda zamonaviy transformatsiyaning asosiy omillari sifatida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ustoz-shogird tizimi, turizm, eksport va raqamli savdo ajratib ko‘rsatiladi. Rasmiy statistik ma’lumotlar va ilmiy manbalarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, hunarmandchilik an’anaviy madaniy meros sifatidagi ahamiyatini saqlab qolish bilan birga, bandlikni ta’minlash va eksport daromadlarini shakllantirish manbaiga aylanmoqda. Shuningdek, xomashyo narxining yuqoriligi, sifat standartlariga rioya qilish, yosh mutaxassislar yetishmasligi va xalqaro brendlarning yetarli darajada shakllanmaganligi asosiy muammolar sifatida qayd etiladi.

**Kalit so‘zlar:** xalq hunarmandchiligi, ustoz-shogird, madaniy meros, transformatsiya, eksport, turizm, raqamlashtirish.

# ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И СОВРЕМЕННАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УЗБЕКСКОГО НАРОДНОГО РЕМЕСЛЕННИЧЕСТВА

**Файзуллаева Шахноза Шухратовна**
Шахрисабзский государственный педагогический институт, магистрант.

**Аннотация.**
В статье анализируются историческое развитие и процессы трансформации узбекского народного ремесленничества от культуры древних городов до современного цифрового рынка. В исследовании проводится сравнительный анализ четырёх исторических этапов развития ремесленничества (период Великого шёлкового пути, период ханств, советский период и период независимости), а также выделяются основные факторы современной трансформации: государственная поддержка, система «устоз-шогирд» (мастер — ученик), туризм, экспорт и цифровая торговля. Сравнительный анализ официальных статистических данных и научных источников показывает, что ремесленничество, сохраняя своё значение как традиционное культурное наследие, одновременно становится источником занятости и экспортных доходов. В качестве основных проблем отмечаются высокая стоимость сырья, соблюдение стандартов качества, нехватка молодых специалистов и недостаточная сформированность международных брендов.

**Ключевые слова:** народное ремесленничество, система «мастер — ученик», культурное наследие, трансформация, экспорт, туризм, цифровизация.

# HISTORICAL DEVELOPMENT AND MODERN TRANSFORMATION OF UZBEK TRADITIONAL HANDICRAFTS

**Fayzullayeva Shahnoza Shuhratovna**
Shahrisabz State Pedagogical Institute, Master's Student.

**Abstract.**
This article examines the historical development and transformation of Uzbek traditional handicrafts from the culture of ancient cities to the modern digital marketplace. The study provides a comparative analysis of four historical stages of handicraft development (the Great Silk Road period, the era of the khanates, the Soviet period, and the independence period) and identifies the main drivers of contemporary transformation: government support, the traditional master–apprentice system, tourism, exports, and digital commerce. A comparative analysis of official statistical data and academic sources indicates that traditional handicrafts, while preserving their significance as cultural heritage, are increasingly becoming a source of employment and export revenue. The main challenges identified include high raw material costs, compliance with quality standards, a shortage of young skilled professionals, and the insufficient development of internationally recognized brands.

**ISSN 3060-5059 (Online)**

**Keywords:** traditional handicrafts, master–apprentice system, cultural heritage, transformation, exports, tourism, digitalization.

**Kirish**. Hunarmandchilik O‘zbekiston xalqining moddiy va ma’naviy merosini bugungi kungacha yetkazgan eng barqaror ijtimoiy-iqtisodiy institutlardan biridir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Marg‘ilon, Rishton, Shahrisabz kabi shaharlar asrlar davomida o‘z hunar maktablarini shakllantirgan, ularning mahsulotlari esa Markaziy Osiyodan tashqarida ham qadrlangan. Bugun bu meros uch yo‘nalishda qayta baholanmoqda: madaniy qadriyat, bandlik vositasi va eksport salohiyati sifatida.

Mavzuning dolzarbligi ikki holat bilan belgilanadi. Birinchidan, so‘nggi yillarda hunarmandlar faoliyati davlat siyosatining alohida yo‘nalishiga aylandi: hunarmandchilik yo‘nalishlari soni kengaydi, hunarmandlar markazlari va usta-shogird maktablari tashkil etildi. Ikkinchidan, global bozorda qo‘lda ishlangan mahsulotlarga talab oshgan, shu bilan birga, ommaviy sanoat mahsulotlari bilan raqobat kuchaygan. Bunday sharoitda hunarmandchilikning tarixiy shakllanish mantiqini bilish uning bugungi o‘zgarish yo‘nalishlarini to‘g‘ri baholash uchun zarur.

Ilmiy muammo shundan iboratki, mavjud tadqiqotlarda hunarmandchilikning tarixi va bugungi iqtisodiy holati ko‘pincha alohida ko‘rib chiqiladi, ularni yagona evolyutsion jarayonda bog‘lovchi qiyosiy tahlil esa yetarli emas.

Tadqiqotning maqsadi — o‘zbek xalq hunarmandchiligining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlash va uning zamonaviy transformatsiya omillarini baholash.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

Mavzu bo‘yicha mahalliy ilmiy adabiyotlar uch guruhga bo‘linadi. Birinchi guruh hunarmandchilikni iqtisodiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqadi: Yusupova (2022) [12] hududlarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish masalalarini, Qashqadaryo viloyati misolidagi ekonometrik tadqiqot [9] esa soha ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qiladi. Ikkinchi guruh hunarmandchilikning xalqaro maydondagi o‘rnini yoritadi: Yoqubjonov [11] hunarmandchilikning tarixiy rivoji, raqamli texnologiyalar va eksport imkoniyatlarini birgalikda ko‘rib chiqqan, xalqaro ko‘rgazmalarda o‘zbek hunarmandchiligining namoyishi esa alohida maqolada tahlil qilingan [5]. Uchinchi guruh hududiy va ijtimoiy jihatlarga bag‘ishlangan bo‘lib, jumladan, Buxoro viloyatida xotin-qiz hunarmandlar faoliyati o‘rganilgan [4].

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Shu bilan birga, bu ishlarning aksariyati bitta jihatga (iqtisod, eksport yoki hudud) to‘xtalgani uchun tarixiy davrlar va zamonaviy o‘zgarishlar yagona evolyutsion modelda bog‘lanmagan. Ushbu maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotda to‘rt usul qo‘llanildi:

- Tarixiy-qiyosiy usul: hunarmandchilik to‘rt davr bo‘yicha tavsiflandi.
- Kontent-tahlil: ilmiy maqolalar, rasmiy matbuot xabarlari va me’yoriy-huquqiy hujjatlar mazmuni o‘rganildi.
- Statistik tahlil: Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 1-iyul va 1-oktyabr holatidagi hududlar kesimidagi ma’lumotlari solishtirildi [6, 7].
- Sintez va umumlashtirish: tarixiy va zamonaviy natijalar yagona xulosaga keltirildi.

Ikkilamchi ma’lumotlar ochiq manbalardan olindi. Birlamchi dala tadqiqoti (so‘rov, intervyu) o‘tkazilmagan. Bu tadqiqotning cheklovi sifatida keyingi bosqichda to‘ldirilishi mumkin.

**ASOSIY METODOLOGIK YONDASHUVLAR**

Tarixiylik yondashuvi — hunarmandchilikni muayyan davrning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoiti bilan bog‘liq holda o‘rganadi.

Tizimli yondashuv — hunarni xomashyo, ishlab chiqarish usuli, usta-shogird an’anasi, mahsulot, iste’molchi va bozor kabi o‘zaro bog‘liq qismlardan tashkil topgan tizim sifatida ko‘rib chiqadi.

Madaniy-antropologik yondashuv — hunarmandchilik buyumlarining ramziy ma’nosi, mahalliy urf-odatlardagi o‘rni va jamoa xotirasi bilan aloqasini o‘rganadi.

Qiyosiy yondashuv — turli davrlar, hududlar yoki hunar turlaridagi o‘xshash va farqli belgilarni solishtiradi.

Transformatsion yondashuv — an’anaviy hunar zamonaviy sharoitga moslashganda nimalar saqlanib qolishi va nimalar o‘zgarishini tahlil qiladi.

**QO‘LLANADIGAN TADQIQOT USULLARI**

Manbashunoslik tahlili: tarixiy hujjatlar, yozma manbalar, eski suratlar, kataloglar va ilmiy adabiyotlarni o‘rganish.

Muzey va kolleksiya materiallarini tahlil qilish: buyumning materiali, shakli, bezagi, ishlanish usuli va kelib chiqishini qayd etish.

Dala tadqiqoti: hunarmandlar ustaxonasini kuzatish, ishlab chiqarish jarayonini hujjatlashtirish, usta va shogirdlar bilan suhbat o‘tkazish.

Qiyosiy-tarixiy tahlil: bir hunar turi yoki mahsulotning turli davrlardagi ko‘rinishlarini solishtirish.

Kontent-tahlil: hunarmandchilik haqidagi maqolalar, ko‘rgazma materiallari, kataloglar yoki ommaviy axborot vositalaridagi tasvirlarni o‘rganish.

Keys-stadi: masalan, bitta hudud yoki hunar turini chuqur tahlil qilish — kulolchilik, kashtachilik, zargarlik yoxud yog‘och o‘ymakorligi.

**O‘ZBEK XALQ HUNARMANDCHILIGINING ASOSIY TURLARI VA HUDUDIY MAKTABLARI**

O‘zbekistonning har bir hududi o‘ziga xos hunarmandchilik maktabi, texnologiyasi, naqshlari va ranglari bilan ajralib turadi.

ISSN 3060-5059 (Online)



**Kulolchilik**

Rishton, Ğijduvon, Urgut va Xorazm kulolchilik maktablari mashhur. Sopol idishlar, laganlar, ko‘zalar va bezak buyumlari tayyorlanadi.



**Kashtachilik**

Buxoro, Nurota, SHahrisabz va Samarqand kashtachilik maktablari o‘ziga xos naqshlari bilan tanilgan. Suzani, so‘zana va turli matolar bezatiladi.



**To‘qimachilik va ipakchilik**

Marğilon atlas va adras ishlab chiqarish markazi hisoblanadi. Ipak va paxta tolalaridan milliy matolar tayyorlanadi.



**Zardo‘zlik**

Buxoro zardo‘zlik san’atining yirik markazidir. Kiyim-kechak, do‘ppi va turli bezak buyumlari zar iplar bilan bezatiladi.

ISSN 3060-5059 (Online)



**Yoğoch o‘ymakorligi**
Xiva, Qo‘qon, Buxoro va Samarqandda rivojlangan. Eshiklar, ustunlar, sandiqlar va mebellar naqshlar bilan bezatiladi.



**Zargarlik**
Oltin, kumush va turli toshlardan milliy taqinchoqlar, uzuk, bilaguzuk, sirğa va marjonlar yasaladi.

**TAHLIL, NATIJALAR VA MULOHAZA**

Hunarmandchilik evolyutsiyasi to‘rt izchil bosqichdan iborat bo‘lib, har birida hunarmandning ijtimoiy o‘rni, ishlab chiqarish tashkili va bozori o‘zgargan (1-jadval).

*1-jadval.O‘zbek hunarmandchiligining tarixiy bosqichlari*

| **Bosqich** | **Ishlab chiqarish tashkili** | **Asosiy markazlar va yo‘nalishlar** | **Bozor** |
|---|---|---|---|
| Qadimgi va o‘rta asrlar (Buyuk Ipak yo‘li davri) | SHahar mahallalaridagi ustaxonalar, hunar bo‘yicha guruhlar | Samarqand (qoğoz, kulolchilik), Buxoro (zardo‘zlik, ipak), Marğilon (ipak) | Karvon savdosi, xalqaro almashuv |
| Xonliklar davri (XVIII–XIX asr) | Usta-shogird an’anasi, sexlar, bozor rastalari | Xiva (yoğoch oymakorligi), Buxoro (kashtachilik, zardo‘zlik), Qo‘qon (ipak, kulolchilik) | Ichki shahar bozorlari va qo‘shni mamlakatlar |
| Sovet davri | Artel va sanoat birlashmalari, yakka tartibdagi faoliyatning cheklanishi | Badiiy-amaliy san’at buyumlari, sanoat tarzidagi ishlab chiqarish | Rejali taqsimot |
| Mustaqillik davri | Hunarmandlar uyushmalari, markazlar, individual va oilaviy tadbirkorlik | 30 dan ortiq yo‘nalish, hududiy ixtisoslik | Ichki bozor, turizm, eksport |

Qadimgi davrda hunar shahar hayotining asosi bo‘lgan: ustalar mahalla va bozor tuzilmasi ichida ishlagan, bilim ustadan shogirdga og‘zaki va amaliy yo‘l bilan o‘tgan. Xonliklar davrida bu tizim mustahkamlanib, hududiy hunar maktablari shakllangan. Sovet davrida esa hunar asosan sanoat va badiiy buyumlar ishlab chiqarishga moslashtirilgan. Bu, bir tomondan, ayrim hunar turlarini saqlab qolgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, individual ustaning mustaqilligini va ayrim an’anaviy texnologiyalarni susaytirgan.

Mustaqillik davridagi o‘zgarishlar ikki asosiy hujjatga tayanadi. Prezidentning 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-son Farmoni [1] hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini belgiladi: hunarmandlar 2017-yil 1-dekabrdan qat’iy belgilangan soliqdan ozod etildi, qishloq joylarda ro‘yxatdan o‘tgan hunarmandlar faoliyatining dastlabki ikki yilida yagona ijtimoiy to‘lovning 50 foizini to‘lash tartibi joriy qilindi, hududiy muvofiqlashtiruvchi komissiyalar tuzildi. Prezidentning 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-son Qarori [2] bu yo‘nalishni qo‘shimcha chora-tadbirlar bilan davom ettirdi. Unda 2020-yil uchun hunarmandchilikni rivojlantirish dasturiga 589,3 mlrd so‘m kredit ajratilishi ko‘rsatilgan. Keyingi hujjatlar qatoriga 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-77-son Qaror [3] ham kiradi. U hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan. Bu hujjatlar yuqoridagi statistik o‘sishning huquqiy va moliyaviy zaminini tashkil etadi.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yil 1-oktyabr holatiga faol hunarmandlar soni 22 100 nafarni tashkil etgan. Bu 1-iyuldagi 21 578 nafardan ancha yuqori [6, 7] (taxminan 2,4 foiz o‘sish). Hududlar kesimida Toshkent shahri (2 964), Farg‘ona viloyati (2 743) va Samarqand viloyati (2 179) yetakchi, Navoiy (419) va Sirdaryo (449) viloyatlari esa eng past ko‘rsatkichga ega. Yetakchi hududlar tarixan mashhur hunarmandchilik markazlari yoki yirik turistik shaharlar ekani kuzatiladi.

Olingan natijalar hunarmandchilik transformatsiyasi bir vaqtning o‘zida to‘rt yo‘nalishda kechayotganini ko‘rsatadi.

Institutsional transformatsiya. Hunarmand ilgari mahalla va sex doirasida faoliyat yuritgan bo‘lsa, bugun uyushma, hunarmandlar markazi va usta-shogird maktabi orqali rasmiy tizimga kiritilmoqda. President.uz ma’lumotiga ko‘ra, har bir tuman va shaharda hunarmandlar markazlari ishlaydi, hududlarda ko‘rgazma va yarmarkalar tashkil etilib, hunarmandlar ularda bepul qatnashadi, eksportdan tushgan valyuta tushumini erkin tasarruf etish huquqi ham beriladi [10]. Bu an’anaviy bilim uzatish usulini (usta-shogird) saqlab, uni rasmiy ta’lim va daromad kafolati bilan to‘ldirish imkonini beradi.

Bozor transformatsiyasi. Ilgari mahsulot mahalliy bozor va karvon savdosiga mo‘ljallangan bo‘lsa, bugun turizm va xalqaro ko‘rgazmalar asosiy savdo kanallariga aylanmoqda. Kun.uz xabariga ko‘ra, 2018-yilda 20 dan ortiq davlatda 113 ta ko‘rgazma va yarmarka o‘tkazish rejalashtirilgan edi [8]. Xalqaro ko‘rgazmalar nafaqat savdo, balki o‘zbek hunarmandchiligini tanitish vositasi ekani ilmiy adabiyotlarda ham qayd etilgan [5].

Hududiy va ijtimoiy transformatsiya. Statistika hunarmandlarning hududiy tarqalishi notekisligini ko‘rsatadi: yetakchi uch hududdagi hunarmandlarning umumiy soni (7 886) Navoiy va Sirdaryo viloyatlaridagi jami hunarmandlar sonidan taxminan to‘qqiz baravar ko‘p. Buxoro misolida [4] hunarmandlar orasida xotin-qizlarning ulushi alohida e’tiborga loyiq. Hunarmandchilik ayollar uchun uydan chiqmasdan daromad olish imkonini beradi, bu esa kambag‘allikni qisqartirishda ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Raqamli va texnologik transformatsiya. Yoqubjonov maqolasida [11] raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va yangi avlodni hunarga jalb qilish soha rivojining asosiy sharti sifatida ko‘rsatilgan. Onlayn savdo maydonchalari, mahsulotning kelib chiqish tarixini ko‘rsatuvchi raqamli pasport va ijtimoiy tarmoqlardagi reklama hunarmand uchun xaridorga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish yo‘lini ochadi. Biroq bunda mualliflik huquqini himoya qilish va sifatni standartlashtirish muhim muammo bo‘lib qolmoqda.

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

O‘zbek xalq hunarmandchiligi to‘rt bosqichli evolyutsiyani bosib o‘tgan: shahar ustaxonalaridan usta-shogird an’anasiga, sovet davridagi sanoatlashgan shaklga va mustaqillik davridagi institutsional, bozorga yo‘naltirilgan tizimga. Bugungi transformatsiya madaniy merosni saqlash bilan iqtisodiy samaradorlikni birlashtirishga qaratilgan.

Tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Mahalliy xomashyo (ip-kalava, tabiiy bo‘yoqlar, maxsus yog‘och turlari) yetkazib beruvchilar uchun QQS bo‘yicha maxsus chegirmalar yoki subsidiyalar mexanizmini joriy etish.

2. Har bir hunarmandchilik mahsulotiga uning kelib chiqish tarixi, ustaning nomi va ishlatilgan tabiiy xomashyoni ko‘rsatuvchi QR-kodli raqamli pasport berish tizimini (blokcheyn yoki milliy yagona reyestr asosida) yo‘lga qo‘yish.

3. Usta-shogird maktablarida o‘qish davrini rasmiy dual ta’lim dasturlariga kiritish va bitiruvchilarga davlat tomonidan tan olinadigan, diplomga tenglashtirilgan sertifikat berish orqali yoshlarning qiziqishini oshirish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-5013007.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-son «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. – URL: https://president.uz/oz/lists/view/1255.
3. Nurmamatov Z. Sh. Innovatsiyalarning roli va ahamiyati ta’limda // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2023. – № 1. – B. 645–650. – ISSN: 2181-0427. – URL: https://journal.namdu.uz.
4. Nurmamatov Z. Sh. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash // Fan, ta’lim va texnikani innovatsion rivojlantirish masalalari. – Andijon, 2022. – B. 31–34. – URL: https://ru.scribd.com/document/942319954/TEZIS-1.
5. NURMAMATOV ZUXRIDDIN SHAVKAT UGLI. (2022). CURRENT STATUS OF DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ACTIVITY OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS. Next Scientists Conferences, 1(01), 66–70.
6. Qosimov B. Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 89.
7. Xayrullayeva G. Talabalarda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish: uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2018. – B. 45.
8. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. – Edmonton: AU Press, 2011. – P. 115.